

## SHOIRA FARIDA AFRO'Z SHE'RIYATIDA LINGVOPOETIK TAHLIL

*Mamtaliyev Abdumo'min Yusuf o'g'li*

*Andijon davlat universiteti erkin tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada Farida Afro'z she'riyatida lirik "men" ifodasi, tabiatining lirik "men"ga ko'chishi masalasi, motivlarning o'ziga xosligi, folklor namunalari lingvopoetikasi tahlil qilingan. Tahlil obyekti sifatida Farida Afro'zning turli yillarda yaratilgan she'rlari olindi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, lingvistik, struktural-tipologik metoddan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, lirik tur, she'r, lingvopoetika, lingvopoetik tahlil.

**Abstract.** The article analyzes the expression of the lyrical "I", the transfer of nature to the lyrical "I" in the poetry of Farida Afro'z, the uniqueness of motives, the linguopoetics of folklore examples. Farida Afro'z's poems created in different years were taken as the object of analysis. The comparative-analytical, linguistic, structural-typological method was used in the research.

**Key words:** folklore, lyrical type, poem, linguopoetics, linguopoetic analysis.

**Аннотация.** В статье анализируется выражение лирического «Я», перенос природы на лирическое «Я» в поэзии Фариды Афроз, своеобразие мотивов, лингвопоэтика фольклорных примеров. В качестве объекта анализа взяты стихи Фариды Афроз, созданные в разные годы. В исследовании использовались сравнительно-аналитический, лингвистический, структурно-типологический методы.

**Ключевые слова:** фольклор, лирический тип, стихотворение, лингвопоэтика, лингвопоэтический анализ.

Iste'dodli va mashhur shoira Farida Afro'z: "Dunyo yaralibdiki, inson xoh shoh, xoh gado bo'lsin hayoti davomida ko'ngil dardlariga chora izlaydi. Ijodkor esa ko'ngildagini yozish bilan yuraklarga yo'l topadi. Uning yozganlari ko'ngil iztiroblariga malham bo'ladi. Turmushning ikir-chikirlari, hayot to'fonlari-yu girdoblari, tabiatning mislsiz tarovati shoir uchun ilhom manbaidir. Ijodkor dunyoning g'ussalari, mayda tashvishlari ichida parchalanib ketmasligi uchun nafaqat yaxshi shoir balki, yetuk SHAXS bo'lishi ham muhim."<sup>1</sup> – deya ijod yo'lining mashaqqatli yo'l ekanligini haqli tasvirlagan edi. Chindan ham shunday she'rlar bo'ladiki, kishilarning dardiga davo, ko'ngliga malham bo'ladi. Ana shunday lahzalarda So'z san'ati yana bir bor o'z qudratini namoyish etadi, ammo qachonki u ipga marjon kabi tizilganida. Uni bunday qo'llashni esa hamma ham

<sup>1</sup> Afro'z F. Shoir – shamolda sham ko'targan odam. "Hurriyat" gazetasi. 2009.

uddasidan chiqa olmaydi. Farida Afro‘z she‘rlarida so‘zlarni go‘zal bir marjon kabi tiza oluvchi, kishi ruhiyatida, ko‘nglida taskin, hadik, ishonch, sog‘inch, orzu, sevgi, sadoqat kabi tuyg‘ularni jimirlatuvchi go‘zal she‘rlar muallifidir. Ayni mazmundagi she‘rlar shoiraning “Qirq kokilligim” (1986-yil), “Iztirob ko‘ylagi” (1992-yil), “Tunlar isyoni” (1994-yil), “Ko‘zim manim...” (1999-yil), “O‘zimdanda o‘zimgacha” (2001-yil), “Kuzdan arazladim”, “Ushshoq” (2004-yil), “Tasbih” (2006-yil) kabi she‘riy to‘plamlardan o‘rin olgan.

Bir vaqtlar Turob To‘la shoir Usmon Nosirni adabiyotimizga shamolday yoxud bo‘ronday kirib kelganini ta‘kidlagan edi. Professor Qozoqboy Yo‘ldoshev Farida Afro‘zni “she‘riyatga chaqmoqdek chaqnab emas, balki kelinchakdek iymanibgina kirib kelgan”ga mengzaydi. Darhaqiqat, shoira o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, she‘rlari kitobxonlar ko‘nglidan joy olgan yirik ijodkorga aylanib ulgurgan. Uning she‘rlaridagi goh qat‘iylik, goh tuproq qadar xokisorlik, ayollarga xos tuyg‘ularning takrorlanmas ohanglari o‘quvchilarni birday qiziqtiradi.

Shoiraning aksar she‘rlari nomlanmaydi. She‘rning birinchi misrasida shoira ifodalamoqchi bo‘lgan fikr aks etadi.

Qozoqboy Yo‘ldosh she‘riyat haqida quyidagi ahamiyatli fikrlarni bildirib o‘tgan edi: “Asl she‘riyat yo muhabbat yoki nafratdan tug‘iladi”<sup>2</sup>. Farida Afro‘z ijodida muhabbatning poymol etilishi, xiyonatga oxiri yo‘q nafrat, “ruh va vujud o‘rtasida sarsonlik” seziladi. Shu jihatdan ular ko‘ngilga yaqin, har bir o‘qiguvchini o‘ziga chorlaydi, o‘ylashga majbur qiladi.

*Charchadim yashirib og‘riqlarimni*

*Ichimga sig‘maydi endi bu daraxt*

*Qo‘porib bo‘lmaydi tomirlarini*

*Jon esa, bezabon, jon savil karaxt*

Farida Afro‘z she‘riyatida horigan ruh, qiynalgan ko‘ngil sezimlari aks etadi. Uning fenomenini belgilovchi asosiy jihat ham mana shunda. Uning uchun bosh maqsad, asosiysi - ruh. Jon-vujud shunchaki, vosita, xolos. U yordan azob chekkan, undan voz kechgan, lekin ko‘ngil, yurak undan sira kecholmaydi, xayollari chiqara olmaydi.

*Seni xayolimdan yashirolmayman*

*Uzib otolmayman seni sug‘urib*

*Sen-la ketolmayman*

*She‘rlar bitolmayman*

*Zaqqumlar yutib*

<sup>2</sup> Qozoqboy Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. T., “Kamalak”, 2016. 151-bet

Uning yuragi yor hajrida – ming bir ko‘zli g‘alvirga aylangan, ko‘ngli esa qizg‘aldoqdek kuchsiz – tegsang to‘kiladi qizg‘aldoq ko‘nglim.

Shoiraning she‘riyatida estetik asos va hayotiy asos bir-birini to‘ldirib keladi. Tashbehlarning o‘ziga xosligi, keng mushohada, ruhiyat talqini, tasvirdagi reallik shoiraning ijodiy qamrovini belgilab beradi.

She‘rlarida hayotning bor-u yo‘giga qoniqish, o‘tayotgan lahzalardan bahramand bo‘lish hissi aks etadi:

*O‘pib tursa sochlaringni nur*

*Baxt neligin kapalakdan so‘r*

*Ne bo‘lsa ham tur, o‘rningdan tur*

*Kel, bugunni bayram qilaylik*

Farida Afro‘z she‘riyatida umuminsoniy qadriyatlar, go‘zal tuyg‘ular ulug‘lanadi. Estetik tushunchalar ichida eng ko‘p qo‘llanadigan obyektlardan go‘zallik, nafislik, insonga xos go‘zal xislatlar shoira she‘rlarining asosiy mavzusini tashkil etadi. Uning ichki olamidagi tuyg‘ular mayinligi, mehrga limmo-lim qalbi faqatgina uning ayollarga xos o‘zjaligidan emas, shijoati va kurashuvchanligidan ham dalolat berib turadi.

*Sog‘ina, sog‘ina, sog‘inmay qo‘ydim,*

*Endi menga baribir kelsang, kelmasang,*

*Qo‘lingdan kelsa gar osmonni tashla,*

*Endi menga baribir, sevsang, sevmasang!*

Bu satrlarda yoridan arazlab unga biroz vaqt qaramay yurgan erka qizning so‘zlari emas, mehr-muhabbat, ishonch, sadoqat bilan kutgan va umidlari puchga chiqqan ayolning ahdlari, hasratlari namoyondir. Uning dardlari o‘ziga qadrli, o‘tgan umriga achinmaslikni xohlaydi. Ammo endi muhabbatsiz yashash oddiy hayotning rangsiz kunlarida usti but, qorni to‘qligiga suyunib yashashni tanlaydi. Lirik qahramon uchun aslida bunday hayotni tanlash oson bo‘lmaydi. U shu kungacha ko‘rgan qiyinchiliklarini eslar ekan,

*Axir ne orttirdim kuyib, kuyinib...*

*Ko‘ksimga bir mushtlab, oxir unutmam,*

deya afsus chekadi. Yana bir she‘rida esa oldingi qarorlarini yanayam qat‘iylashtiradi va ketmoqlikka ahd qiladi.

*Mayli men ketaman, qaytish yo‘q aslo,*

*Bu yo‘lda qaytganni o‘ldirar g‘urur.*

*Sen silagan sochimni men qirqib tashlab,*

*Yig‘lamay yashayman, mana, qarab tur,*

*Ko‘ksimga bir mushtlab!*

Yoki

*Ketaman, meni zor kutganlar tomon,  
Gul bargin to 'shagan o 'rikzorlarga.  
Topshirdim, o 'rnimga yig 'lasin osmon,  
Tishimning oqiga intizorlarga,  
ketaman...*

Farida Afro'z ijodining o'ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, unda lirikaning ma'lum yo'nalishida qotib, bir joyda turib qolinmaydi. Turli shakllardan foydalanishga intiladi, muxammaslar, uchlik shaklda yozilgan she'rlar bunga misol bo'ladi. Uchliklarda shakl kichraygan sari ma'no kengayishi kuzatiladi. Bundan tashqari shoir ijodida uchraydigan motivlar bir qator she'rlarida takrorlangani bilan o'zining jozibasini yo'qotmaydi. Masalan, daraxt, tuproq, zamin, sog'inch kabilar har bir she'rda o'z vazifasini a'lo darajada bajara oladi. (*Charchadim yashirib og'riqlarimni, Ichimga sig'maydi endi bu daraxt. Qo'porib bo'lmaydi tomirlarini, jon esa bezabon, jon savil, karaxt*) Tabiat tasviri bilan hamohang tarzda insonning ichki kechinmalari, o'y-xayollari ham ochib boriladi.

Tahlil jarayonida kuzatiladigan yana bir xususiyat—shakl va mazmunning bir-biriga mutanosibliigi ekanini hisobga oladigan bo'lsak, hozirgi kunda katta janrlarda ham shakliy o'zgarishlar uchramoqda va she'riyatning bunday o'zgarishlarga uchrashi, albatta, yaxshi tomonga qadam deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мусақулов. А. Ўзбек халқ кўшиқларининг тарихий асослари. – Тошкент: Фан, 1994
2. Қуронов Д, Шералиева М, Мамажонов З. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.
3. Қуронов Д. Адабий ўйлар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016.
4. Қуронов Д. Мутолаа ва идрок машқлари. – Тошкет: Akademnashr, 2013.
5. Қуронов Д. Талқин имконлари. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.
6. Улугбек Хамдам. Янги ўзбек шеърляти. – Т.:Адиб, 2012.
7. Afro'z F. Shoir – shamolda sham ko'targan odam. “Hurriyat” gazetasi. 2009.
8. Бўтаева Фарида Афрўз. Сайланма.1жилд.Ўша кун-бугундир.-Т:Шарқ. 2003
9. Farida Afro`z. Tasbeh. T., “Sharq”, 2007.